

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
XORIJIY TILLAR FAKULTETI
FRANSUZ TILI KAFEDRASI**

3 kurs F-32 guruh talabasi

Suyarova Oysara ning

Nazariy grammatika fanidan tayyorlagan

KURS ISHI

**MAVZU: L’utilisation de la catégorie modalité en
français**

Bajardi:

Suyarova O

Qabul qildi:

Qo’shayeva G

Qarshi 2014y

REJA:

Kirish.

Modallik kategoriyasi haqida asosiy tushunchalar. “Hohish-istak”, “mumkinlik” va “zaruriyat” modallik kategoriyalarining darak va so’roq gaplarda ifodalanishi.

- 1.1. Fransuz tilida hohish-istak modallik kategoriyasining darak va so’roq gaplarda berilishi.
- 1.2. Fransuz tilida mumkinlik modallik kategoriyasining darak va so’roq gaplarda berilishi.
- 1.3. Fransuz tilida zarurat modallik kategoriyasining darak va so’roq gaplarda berilishi.

II BOB. “Hohish-istak”, “mumkinlik” va “zaruriyat” modallik kategoriyalarining bog’lovchisiz va bog’langan qo’shma gaplarda ifodalanishi.

- 2.1. Fransuz tilida hohish-istak modallik kategoriyasining bog’lovchisiz va bog’langan qo’shma gaplarda berilishi.
- 2.2. Fransuz tilida mumkinlik modallik kategoriyasining bog’lovchisiz va bog’langan qo’shma gaplarda berilishi.

I BOB

Modallik kategoriyasi haqida asosiy tushunchalar. “Hohish-istak”, “mumkinlik” va “zaruriyat” modallik kategoriyalarining darak va so’roq gaplarda ifodalanishi.

1.1. Modallik kategoriyasi haqida asosiy tushunchalar. Fransuz tilida hohish-istak modallik kategoriyasining darak va so’roq gaplarda berilishi.

Fransuz tilida ham o’zbek tilidagi kabi darak gaplar voqelikdagi biror narsa, voqea-hodisa haqida xabar beradi. Shuning uchun ham bunday gaplar nutqning barcha usludblarida keng qo’llaniladi.¹ Darak gaplarda so’zlar odatdagi tartibda joylashadi. Ohang gapning bosh qismida ko’tariladi, oxirida esa pasaya boradi. Darak gaplarning uslubiy xususiyatlaridan biri xabarning tasdiq yoki inkor shaklida ifodalana olishidadir. Masalan:

“Je veux manger demain à mon dîner la petite Aurore. Je le veux, dit la Reine, et je la veux manger.”

“Ertaga tushlikka men jajji Avrorani yeyishni hohlayman. Ha shuni ko’nglim tusayapti, debdi qirolicha, men uni yeyishni hohlayman.”

Misollardan ko’rinib turibdiki, gapda istak kategoriyasini ifodalashda vouloir fe’li mustaqil fe’llar bilan birikib, murakkab fe’l-kesim hosil qilayapti. Misollarnim tadqiq etishda davom etarkanmiz, u yerda modal fe’l o’zining semantik xususiyati orqali qator ma’nolar bilan uyg’inlashib ketganligini guvohi bo’lamiz. Masalan, matn mazmunida istak, niyat, payt ma’nolari ifodalangan. Ushbu tushunchalarning umumiy mazmuni kelajakka qaratilgan bo’lib, ish-harakatning amalga oshishi mumkin deb hisoblanadi. Gapdagi payt ravishi demain ham ish-harakat hozir emas, balki keyinroq amalga oshishi mumkinligidan darak

¹ J. A. Yoqubov. “Modallik kategoriyasining mantiq va tilda ifodalanishining semantik xususiyatlari”. Toshkent. “Fan” nashriyoti. 2005 yil. 132 bet.

beradi. Ikkala istak gapda ham modal sub'ektning xususiy istagi, niyati berilib, misollarda fe'llarning faol nisbati qo'llangan. Gapdagi le, la olmoshlari vositasiz to'ldiruvchi bo'lib, unda sintaktik vazifani bajarayapti.

Fransuz tilida modallikning “xohish-istak” semantik kategoriyasini ifodalashga nafaqat vouloir fe'li, balki boshqa leksik birliklar bilan ham berilishi mumkin. Masalan, bunga misol qilib, yuqoridagi modal fe'lga sinonim sifatida “avoir envie” fe'l qurilmasini olish mumkin. Shuningdek, fransuz tilida modal fe'l vouloir gaplarda mustaqil fe'llar bilan birga kelib, kelajakda amalga oshishi mumkin bo'lgan niyat, istak va amalga oshgan istakni ifodalab kelishi mumkin. Masalan:

“Forestier voulait acheter deux vases pour les poser sur sa bibliothèque.”

“Foreste o'zining kabineti uchun ikkita vaza olmoqchi ekan.”²

“Ecoute, ma mignonne, je ne voulais point te blesser; je n'ai point songé à ce que je disais.”

“Menga qara asalim, seni sira xafa qilmoqchi emasdim. Men o'ylamay gapirib yuboribman.”

O'tgan zamon davom fe'li qo'llangan yuqoridagi misollarda istak, niyat ma'nolari bilan birga buyruq va inkor ma'nolari ham ifodalanmoqda.

Istak gaplarning sub'ekti sifatida birinchi misolda atoqli otlar ikkinchi gapda esa kishilik olmoshlari qo'llanib, xususiy istak va niyat ma'nolari ifodalanayapti. Ikkala misolda ham indikativ mayli va fe'llarning aktiv nisbati qo'llangan. Misollarda ifodalangan istak har xil, ular ijtimoiy va axloqiy kabi istak turlaridir. Ko'rinib turibdiki, misollarda semantik nuqtai nazardan istak, niyat buyruq, inkor, urini ko'rish, afsusalanish kabi ma'nolar ifodalangan bo'lsa, grammatik ma'no esa ish-harakatning davom etayotganligi, kelajakka qaratilganligi va tugallanganligi to'liqsiz va ko'makchi fe'l shakllari orqali ifodalangan.

² G. de Mopassan. “Azizim”. Toshkent. “O'qituvchi” nashriyoti. 2006 yil. 76 bet.

Modallikning xohish-istak kategoriyasi modal fe'l vouloir yordamida faqat indikativ maylida qo'llanilibgina qolmasdan, balki u prezens va o'tgan zamon shart maylida ham ifodalanishi mumkin. Masalan:

“Je voudrais raconter mon voyage depuis le commencement...”

“Men o'z sarguzashtimni bir boshdan aytib bermoqchi edim...”

”Ça sera beau”, approuvait Mondo. “Je voudrais bien le voir tout de suit.”

“Bu chiroyli chiqadi”, ma'qulladi Mondo. “Uni chizib bo'lishingiz bilan ko'rsam devdim.”

Yuqorida keltirilgan misollarda istak kategoriyasi fransuz tilida shart mayli yordamida berilib, bu kategoriya keleshikda amalga oshishi mumkinligi ifodalangan. Birinchi misoldagi modal fe'l va bien ravishining qo'shilishi istakni yanada mustahkamlab, ta'kidlab, kuchaytirib kelmoqda. Fransuz tilida ushbu kategoriyani ifodalash uchun shart maylining prezens zamoni qo'llangan.

Yuqorida aytib o'ganimizdek, istak-xohish kategoriyasini fransuz tilida faqat vouloir fe'li bilan emas, balki unga sinonim sifatida avoir envie modal fe'l qurilmasi bilan ham hosil qilish mumkin. Sub'ektning ichki istagi talab qilingandagina, bu semantik qurilma qo'llanadi. Bunday sintaktik qurilma tez tushinish va nazorat qilish qiyin bo'lgan istakni bildiradi. Ushbu modal qurilmaning mohiyati qator semantik ma'no, ya'ni sitativ istak toki talab qilingan zarur ish-harakatning amalga oshishi natijasi orqali izohlab beriladi. Bunday holda istak ma'nosi bir oz susayib, talab yoki zaruriyat ma'nosi kuchayadi. Masalan:

“Il avait envie de courir, de sauter en grissant le dernier étage.”

“U zinaning tepasiga hatlab-hatlab chopib ko'tarilgisi keldi.”

“Elle avait envie d'écrire encore une lettre à son père.”

“Uning o'z otasiga xat yozgisi keldi.”

Avoir envie modal fe'l qurilmasi birinchi misolda yugurish, ikkinchi misolda esa yozish zaruriyati tug'ilganligini ifodalab, modal qurilma sub'ektning ichki tuyg'ulari, hissiyoti va holatini bildirmoqda. Ushbu istak, talab, zaruriyat semantik tushunchalarni ifodalashda fransuz tilida o'tgan zamon davom fe'li qo'llanadi. Ish-harakatni anglatib kelgan istak yoki amalga oshiruvchi zaruriyat kelajakka qaratilgan voqelik bo'lib, misollarda tasdiq yoki inkor ma'nosini anglatadi va aktiv nisbatda qo'llanadi. Gaplarning sub'ektiv shakli sifatida uchinchi shaxs kishilik olmoshlari qo'llanadi. Hamma istak gaplarda modal fe'l mustaqil ma'noli fe'l bilan birikib, xususiy istakni ifodalab kelmoqda. Ikkinchi misolimizdagi encore ravishi esa ish-harakatning yana qaytarilish istagi yoki zaruriyati tug'ilganligini ta'kidlash uchun qo'llanadi.

Istak kategoriyasini darak gaplarda ifodalanishida shuni ta'kidlash lozimki, vouloir fe'li o'zining semantik xususiyati bilan turli lingvistik kategoriyalar sifatida shakllanadi. Ushbu kategoriya faqat darak gaplardagina emas, balki so'roq gaplarda ham qo'llanishi mumkin.

Shu o'rinda xohish-istak modallik kategoriyasining so'roq gaplarda ifodalanishini ko'rib chiqishdan oldin, so'roq gaplarning o'zi haqida qisqacha to'xtalib o'tishni joiz deb topdik.

So'roq gaplar o'zaro fikrlashuvda nutqiy aralashuvni keltirib chiqaradi. Bunda so'zlovchi ko'pincha o'z savoliga tinglivchidan javob kutadi. So'roq gaplar barcha nutq uslublarida uchraydi. Ammo ular turli nutq uslublarida turlicha vazifa bajaradi. Jumladan, so'roq gaplar dialogik nutqda keng qo'llanadi. Dialoglarda so'roq gaplar suhbatdoshga qaratilgan bo'lib, undan u yoki bu narsa-voqea haqida javob olish maqsadida aytiladi. Ma'lumki fransuz tilida so'roq gaplar uch xil yo'l bilan hosil qilinadi: ohang, inversiya va "Est-ce que" iborasi yordamida. Shu bilan birga bir til vaziyatida ikki va undan ortiq gapning ishlatilishi so'zlovchining o'ta hayajonini, ruhiy holatini ifodalashga xizmat qiladi. Masalan bunday so'roq gapning semantik xususiyatlarini quyidagi misollarda yaqqol ko'rish mumkin.

“Tu ne veux pas rester?”

“Je ne peux pas, je dois rentrer.”

“Yana bir oz qolishni istamaysanmi?”

“Qololmayman. Qaytishim kerak.”

“Voulez-vous vous marier? Ce sera vous mettre une pierre au cou.”

“Uylanishni istaysizmi? Siz uchun bu bo'yinga tosh osib olgandek gap.”

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, birinchi misolda modallikning istak kategoriyasi so'roq so'zlarsiz, ya'ni so'roq ohangi, ikkinchi misolda esa xuddi shu kategoriyasi inversiya yordamida ifodalangan. Bunday usul universal vosita sanaladi. U so'roq gaplarning hamma turida ishtirok etadi. Lekin so'roqni ifodalovchi maxsus vositalar ishlatilmaganda, ohang so'roqni ifodalovchi asosiy vositaga aylanadi.³

So'roq gaplarda modallikning istak ma'nosi faqatgina so'roq ohangi bilan berilib qolmasdan, balki maxsus so'roq so'roq so'zlari bilan ham kelishi mumkin:

Il l'arrêtait et lui demanda. Et tout simplement: **Est-ce que** vous voulez m'adopter?

U biror kimsani to'xtatardida, sodddalik bilan: meni asrab olishni hohlaysizmi derdi.

Elle leur a demandé: ”**Qu'es-ce que** vous voulez manger de bon qujourd'hui?”

U ulardan so'radi: bugun qanday mazali taom yegingiziz kelayapti?

Misollarda istak kategoriyasi fransuz tilida so'roq so'zlar *est-ce que*, *qu'es-ce que* hamda modal fe'l yordamida ifodalangan. Misollarda istak ma'nosi so'roq

³ J. A. Yoqubov. “Modallik kategoriyasining mantiq va tilda ifodalanishining semantik xususiyatlari”. Toshkent. “Fan” nashriyoti. 2005 yil. 136 bet.

so'zlar yordamida ifodalanganda to'g'ri so'z tartibi saqlanib qolgan. Misollarda istak kategoriyasi prens indekatif maylda berilib, ularda fe'l-kesim shaxsli fe'llar bilan ifodalangan, shuningdek fe'lining aktiv nisbati qo'llanib, xususiy istak ma'nosi ifodalangan.

1.2. Fransuz tilida mumkinlik modallik kategoriyasining darak va so'roq gaplarda berilishi.

Fransuz tilida ham o'zbek tilida bo'lgani kabi modal fe'lining sodda darak gapda qo'llanilishi turli semantik ma'nolarni ifodalab kelishi mumkin. Masalan:

Ils ne se réveillerons pas avant demain matin. Tu peux rester ici.

Ular ertalabgacha uyg'onishmaydi. Shu yerda qolaver.

Yuqoridagi misolimizda mumkinlik ma'nosi payt ruxsat tushunchalari bilan bog'langan. Mumkinlik ma'nosi ushbu gapda pouvoir modal fe'li yordamida prezens zamonida ifodalangan. Ushbu kategoriya bilan birga yana payt ma'nosini bildiruvchi leksik so'zlar: ko'makchi **avant** va payt ravishlari **demain matin, ici** ravishi orqali esa o'rin ma'nosi ifodalangan.

Quyida berilgan misolimizda esa mumkinlik ma'nosi maslahat, payt tushunchalari bilan bog'langan bo'lib, mumkinlik kategoriyasi bo'lishsiz shaklda berilgan hamda inkor ma'nosining reallashishida inkor so'z **non**, ravish **tout à fait**, sifat **impossible** va **ne...pas** inkor yuklamalari ham ishtirok etgan. Bu gapda yana biz prezens zamonida payt ma'nosi avant ko'makchisi orqali ifodalanishini ko'ramiz. Misoldago le olmasi ot o'rnida qo'llanib, vositasiz to'ldiruvchi vazifasida kelgan.

Non , c'est tout à fait impossible. Vous ne pouvez pas le voir avant quatre ou cinq jours.

Yo'q to'rt, besh kunsiz uni ko'ra olmaysiz. Buning aslo iloji yo'q.

Yuqorida bayon etilgan mumkinlik ma'nosi bilan bog'langan tushunchalardan tashqari holat tushunchalari ham ifodalanishi mumkin. Bunday holatda mumkinlik kategoriyasi modal fe'l bilan prezents zamonda qollanib, modal sub'ekning ichki ruhiy holatini ko'rsatishi mumkin. Masalan:

Je ne peux pas travailler sans fumer, dit-il :

Papirossiz ishlay olmayman, dedi u.

Fransuz tilida mumkinlik modallik kategoriyasi faqat kishilik olmoshi bilan ifodalanib qolmasdan, noaniq olmosh bilan ham kelishi mumkin, bundan tashqari, ushbu kategoriya indekativ bilan birga kondesional mayl yordamida ifodalanadi. Masalan:

Personne ne pouvait le voir, personne ne pouvait faire attention à vieux chien jaune.

Hech kim uni ko'ra olmasdi, hech kim bu sariq itga e'tibor bera olmasdi.

Yuqorida keltirilgan misolda noaniq olmosh personne ega vazifasida kelib, inkor ma'nosini anglatmoqda. Bu gapda ketma-ket inkorni ifoda qilgan noaniq olmosh va yuklamalar qo'llangan.

Hohish-istak modallik kategoriyasida bo'lgani kabi so'roq gaplarda mumkinlik kategoriyasi ham ohang, so'roq iboralar va intonasiya yordamida hosilqilinishi mumkin. Masalan:

Tu peux jouer de la musique avec cela? Demanda l'enfant.

Bunday kyu chala olasanmi? So'radi bola.

Ushbu gapdan istak, ruxsat va taklif kabi tushunchalarni anglab olish mumkin. Shuningdek, gapda shaxsning ichki bilish qobiliyati ifodalanib, kelajakda

amalga oshishi mumkin bo'lgan ish-harakat anglashilmoqda. Yana boshqa misolga diqqatimizni qaratamiz.

Ah! S'écria la Bûcheronne, pourrais-tu bien toi-même mener perdre tes enfants?

Voy! Dedi o'tinchining xotini, qanday qilib o'z bolalaringni adashtirib kelaolasan?

Yuqoridagi misolda his-hayajonni, taajub va hayratlanishni anglatib kelgan so'z Ah! Fransuz tilida- voy! o'zbek tilida ham bor. Misoldan holat, norozilik kabi tushunchalarni anglab olish mumkin.

Ikkala gapda ham harakat so'zlovchi tomonidan baholanib, ikkinchi gapda modal ichki sub'ektning axloqiy holati berilib, amalga oshgan mumkinlik kategoriyasini anglatib kelmoqda.

Yuqorida mumkinlik modallik kategoriyasining gaplarda ohang va inversiya yordamida berilishini ko'rib chiqdik. Endi uni gaplarda so'roq so'zlar misolida tahlil qilamiz.

Mumkinlik kategoriyasi so'roq gaplarda prezens kondisionalprezens va imperfekt aniqlik mayllari orqali ifodalanib, **est-ce que, comment, que** so'roq so'zlar modal fe'l bilan har xil semantik ma'nolarni, masalan, inkor, ruxsat, dilkashlik, taklif, iltimos, maslahat, istak, akablanish, taajjub kabi semantik holatlar anglashilishi mumkin. So'roq gaplarda mumkinlik kategoriyasining amalga oshishi faqat modal sub'ekga bog'liq bo'lmay, balki tashqi muhitga ham bog'liq bo'lib biz bu holatni tashqi ob'ektiv mumkinlik deb aytishimiz mumkin. Masalan:

Est-ce que vous ne pourriez pas, l'occasion de notre mariage, vous...vous anobler un peu?

Bizning nikohdan o'tishimiz munosabati bilan siz...siz dvoryan bo'lolmasmiksiz?

Est-ce que vous je peux te le voir? demandait – elle enfin.

Uni ko'rsam bo'ladimi? deyoldi u nihoyat.

Parler? Comment peut-tu parler avec cet objet?

Gapirishipti? Bu asbob yordamida qanday gapirishing mumikin?

Misollardagi modal fe'l ish-harakatning kelajakda amalga oshishi mumkinligini anglatish bilan birga taxminlik ma'nolari yashiringan.

1.3. Fransuz tilida zarurat modallik kategoriyasining darak va so'roq gaplarda berilishi.

Endi zarurat modallik kategoriyasining darak va so'roq gaplarda ifodalanishini tahlil qilsak.

Endi zarurat modallik kategoriyasining qo'llanishida devoir modal fe'li faol qatnashib, bu fe'l sodda gaplarda turli zamon va mayllarda ishtirok etadi. Masalan:

En Afrique, sur la mer Rouge? – Giordan le pêcheur riait. Je ne peux pas aller là bas, je dois rester ici, sur la digue.

Afrikaga, Qizil dengizga demoqchimisan? -kuldi baliqchi Jordan. Men u yoqlarga bora olmayman, ana shu to'g'on ustida qolishga majburman.

Ça doit être grand, la mer Rouge, disait Mondo.

Qizil dengiz deganlari rosa katta bo'lsa kerak, dedi Mondo.

Misollarda zaruriyat ma'nosi devoir modal fe'li bilan ifodalangan prezens, indekativ zamonlarda qo'llanib, ish-harakatning natijasini ko'rsatmoqda. Misollarda zaruriyat ma'nosi ifodalanib qolmasdan, ayni chog'da boshqa semantik kategoriyalar ham jumladan, mavjudlik ma'nosi, mumkinlik ma'nosi, payt ma'nosi taxmin hamda o'xshatish ma'nolari ifodalangan.

Misollarda fe'llarning aniqlik va majhullik nisbatlari qo'llangan. Shuningdek, gapda zaruriyat ma'nosini ifodalashda bir nechta mustaqil fe'llar modal fe'l bilan birlashib, zaruriyat ma'nosini ifodalashga xizmat qilishi mumkin. Masalan:

Je devrais me décider à aller finir l'hiver dans le Midi.

Qishda janubga ketmasam bo'lmaydi.

Je n'aurait pas dû te faire connaître Monsieur et Madam du Roy de Cantel, père et mère.

Seni chol-kampir Dyu Rua de Kantellar bilan tanishtirmasligim kerak edi.

Yuqoridagi ikkita misolda modal fe'l devoir uchta mustaqil fe'l, ya'ni se désider, aller va finir fe'llari bilan birlashib, zaruriyat ma'nosini ifodalashga xizmat qilmoqda.

Endi zaruriyat modallik kategoriyasining so'roq gaplarda ifodalanishini ko'rib chiqamiz.

Fransuz tilida zaruriyat kategoriyasi so'roq gaplarda grammatik, leksik, inversiya va intonasiya vositalar orqali ifodalanishi mumkin. Masalan:

Vous avez dû le voir du reste?

Aytganday, buni o'zingiz ham ko'rgan bo'lsangiz kerak?

Est-ce que je devrais vous avouer cela, moi, un homme marié, à vous, une jeune fille?

Uylangan odam sizday bir qiz bilan bunday gaplashishga qanday haddi sig'di.

Boshqa modallik kategoriyalarida bo'lgani kabi misolda zaruriyat ma'nosi to'g'ri so'z tartibi, ya'ni kuchli ohang, maxsus so'roq iborasi est-ce que orqali ifodalangan.

II BOB

“Hohish-istak”, “mumkinlik” va “zaruriyat” modallik kategoriyalarining bog’lovchisiz va bog’langan qo’shma gaplarda gaplarda ifodalanishi.

2.1. Fransuz tilida hohish-istak modallik kategoriyasining bog’lovchisiz bog’langan qo’shma gaplarda berilishi.

Ikki yoki undan ortiq sodda gaplarning grammatik bog’lovchilar yordamisiz o’zaro birikuvidan tuzilgan qo’shma gaplar bog’lovchisiz qo’shma gaplar deyiladi. Ohang bog’lovchisiz qo’shma gaplarning tuzilishidagi asosiy vositalardan biri. Bog’lovchisiz qo’shma gapning tuzilishida hamda bu xil gaplarda turlicha ma’no va ma’no nozikliklarini ifodalashda ohang asosiy vosita bo’lib xizmat qiladi. bog’lovchisiz qo’shma gaplar uch turga bo’linadi: payt, qiyoslash, izohlash munosabatini ifodalovchi qo’shma gaplar. Masalan:

Je ne veux penser à rien, le cœur est un bon guide.

Hech narsani o’ylashni hohlamayman: yuragim- eng sodiq yo’lboshlovchi!

Il voulait renoncer au monde, il voulait ne pas prendre cet argent.

Hozir u oliy tabaqa davrasida hayot kechirishdan voz kechishga ham, bu pullarni qaytarib yuborishga ham tayor edi.

Ushbu misollarda vouloir birinchi modal fe’l, ne...pas yuklamalari va rien ravishi orqali umumiy inkor ifodalanayapti.

Boshqa istak gapda esa ikki holatda ham modal fe’l qo’llanib, istak ma’nosi kelajakda amalga oshishi mumkinligi nazarda tutilayapti. Ushbu gapda ne...pas yuklamalarining modal fe’ldan keyin qo’llanilishi juda kam uchraydi. Berilgan misollarda istak kategoriyasini fransuz tilida ifodalashda prezens va imperfekt indekativ mayli qo’‘angan . istak ma’nosini ifodalashda esa kishilik olmoshlari ega vazifasida kelayapti.

Bog'langan qo'shma gaplar deb o'zaro teng bog'lovchilar yordamida birikkan, mazmuni va tuzilishiga ko'ra bir butunlikni tashkil etgan qo'shma gap turlariga aytiladi.

Bog'langan qo'shma gapni boshqa qo'shma gap qurilmalaridan farqlab turuvchi asosiy grammatik belgi ularni tashkil etgan qismlarni bir biriga bog'lovchi teng bog'lovchilardir. Bog'langan qo'shma gapni tashkil etgan qismlar orasida ham, bog'lovchisiz qo'shma gaplarda bo'lganidek, payt, qiyoslash, sabab, natija, izohlash va ayirish kabi munosabatlar ifodalanadi. Masalan, istak kategoriyasining qanday qo'llanishini bog'langan qo'shma gaplarda ko'rib o'taylik:

Il veut sortir à toute force, mais j'ai horriblement peur d'un accident.

Uning ham borgisi kelib turibdi, men esa bir korhol bo'lmasaydi, deb qo'rqib turibman.

Ils avaient voulu faire de leur fils un monsieur et l'avaient mis au collège.

O'g'limiz o'qib katta odam bo'lsin debchol-kampir uni kollejga berishdi.

Misollarga e'tibor bersangiz bog'langan qo'shma gaplarda istak ma'nosi zidlov bog'lovchisi mais va biriktiruv bog'lovchisi et yordamida ifodalanganini ko'rasiz. Modal fe'l istakni ifodalash bilan birga turli semantik ma'nolar jumladan, qiyoslash, payt, sabab, natija va izoh kabi tushunchalar bilan uyg'unlashib ketgan. Misolda mais va et bog'lovchilari sodda gaplarni bir biriga bog'lab, turli ma'nolarni ifodalab kelmoqda. Mais bog'lovchisi ikkinchi gapning boshida kelib, o'zidan oldin kelgan gapdagi mazmunga nisbatan keyingi gap zid, qarama qarshi qo'yilganini, shu bilan birga, bu gaplarning biridagi voqeaning yuzaga kelganligini ko'rsatadi. Et bog'lovchisi ikki yoki undan ortiq sodda gaplarni bir biriga biriktirganda, yo payt, yo chog'ishtirish, yo sabab ma'nosini ifodalaydi.

Misol et bog'lovchisi orqali bog'langan qo'shma gaplarda bir vaqtda yuzaga keladigan voqea-hodisa yoki harakat ifodalanganligini ko'rsatmoqda. Fransuz tilida bog'langan qo'shma gaplarda modal fe'l vouloir turli zamonda, masalan, prezens va plyuskvampervekt (uzoq o'tgan zamon) zamonlarida qo'llangan. Ba'zi

gaplarda ish-harakatdagi istak amalga oshishi mumkin bo'lsa, qolganida tugallangan voqeylik amalga oshmagan istakni anglatib kelgan.

Fransuz tilida bog'langan qo'shma gaplarda istak ma'nosini vouloir fe'lidan tashqari avoir envie modal fe'li qurilmasi bilan ham ifodalash mumkin:

Un jour, Mondo avait très envie d'écrire des lettres et il avait décidé de chercher quelqu'un pour lui apprendre à lire et à écrire.

Kunlarning birida Mondoning juda ham xat yozgisi keldi va o'qish-yozushni o'rgatadigan biror kimsani topishga qaror qildi.

Elle avait envie de prendre un douche froide, elle avait peur que le bruit ne réveille sa mère.

Sovuq dush qabul kelgisi keldi-yu, onasini uyg'otib qo'yishdan cho'chidi.

Ushbu misollarda sodda gaplarni bir biriga bog'lab kelayotgan biriktiruv bog'lovchisi et va zidlov bog'lovchisi mais qo'llangan. Gapdagi très ravishining qo'shilishi istakning yanada kuchaytirganini kuzatamiz. Hamma bog'langan qo'shma gapda bir vaqtda yuzaga keladigan voqea-hodisa yoki harakat ifodalangan. Berilgan misollarda imperfekt indekariv zamoni qo'llangan hamda gaplar mazmunida istak ma'nosi bilan birga aniq ma'nosi ifodalangan.

Fransuz va o'zbek tillarida istak kategoriyasining to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gapda ifodalanishi.

Fransuz tilida istak kategoriyasi to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gaplarda S1 Vm que S2 Vsubj sintaktik modeli asosida hosil bo'ladi.

To'ldiruvchi ergash gap bosh gap tarkibidagi biror bo'lakning (olmoshning yoki otning, shuningdek fe'l kesimining) ma'nosini aniqlash yo'li bilan bosh gapni va uning kesimidan anglashilgan mazmunni to'ldiradi. To'ldiruvchi ergash gap bosh gapdan so'ng kelib, unga analitik yo'l bilan bog'lanadi. Ushbu ergash gap bosh gap kesimidan so'ng que bog'lovchisi orqali bog'lanib, bosh gapning mazmunini to'ldiradi. Masalan:

(1) J'ai deux soeurs qui sont des anges de beauté , de candeur, et je veux qu'elles soient heureuses. (BPG, 121)

Mening ikkita singlim bor – ikkovi ham latofat va iffat farishtasi, men ularni baxtli bo'lishini xohlayman (BFO, 140)

(2) Cher papa, je voudrais bien que tu viennes reprendre le réveille –matin (CL, 83).

Dadajon, kelib soatingizni olib ketishingiz juda xohlardim (KJI, 68).

Misollarning bosh gapida modafe'l prezens indikativ (1) va prezens konditsional mayllarning (2) zamonlarida qo'llangan. Istak ma'nosi misollarda turli holatda ya'ni ish-harakatning amalga oshishini istash ma'nosini (1,2) anglatib kelmoqda. Ba'zi gaplarda, jumladan, (2) bien ravishi orqal ifodalangan istak kuchaytirilganini anglatmoqda. Ushbu ergash gapli qo'shma gaplarda istak ma'nosi bilan birga sub'ekt holati (1) hushmuomalalik (2) ma'nolari ifodalanayapti. To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gaplarning ergash gap qismida hozirgi zamon istak mayli qo'llangan.

Fransuz va o'zbek tillarida istak kategoriyasining aniqlovchi ergash gapli qo'shma gapda ifodalanishi

Aniqlovchi ergash gap bosh gap tarkibidagi olmosh yoki ot orqali ifodalangan biror bo'lakning belgi-xususiyatini izoxlab keladi. Bu turdagi ergash gaplarda ma'lum predmetning belgi-xususiyati to'g'risida izoh beriladi va shu yo'l bilan bosh gapning mazmuni to'ldiriladi. Fransuz tilida aniqlovchi ergash gap har vaqt bosh gapdan so'ng keladi. Bizning misollarimizda bu xil ergash gaplar bosh gapda qui, dont, auquel kabi nisbiy olmoshlar yordamida bog'langan. Masalan:

(1) Vous êtes un bon petit jeune homme auquel je ne veux pas de mal (BPG, 91).

Siz yaxshi yigitsiz, shuning uchun men sizga yomonlikni ravo ko'mayman (BFO, 105)

(2) Il a voulu relever sa fille, qui lui prenait les mains pour les lui baiser (BPG, 44).

U qizini o'rnidan turg'azib qo'ymoqchi bo'lgan edi, ammo Viktorina uning qo'lini mahkam ushlab olib, hadeb o'pa boshladi (БГО, 52).

Misollarda istak kategoriyasini ifodalab kelayotgan vouloir modal fe'li bosh gapda ham (2), ergash gapda ham (1) qo'llanib, nisbiy olmoshdan keyin (1) va oldin (2) kelgan. Fransuz tilida aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap murakkab (auquel) va sodda, (qui) nisbiy olmoshlar yordamida ishtirok etadi. Misollarda istak ma'nosini anglatib kelgan ish-harakat kelajakda amalga oshishi (1) yoki tugallanishi, ammo uning amalga oshmaganligi (2) ifodalangan. Aniqlovchi ergash gaplarda turli zamon va mayllar qo'llangan. Jumladan, fransuz tilida prezens (1) va perfekt (o'tgan zamon) (2) indikativ mayl zamonlarida qo'llangan.

Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gaplarda semantik sub'ekt turli yo'llar bilan ifodalangan. Masalan, birinchi gapda ega e'est fe'l qurilmasi bilan urg'uli olmosh orqali ajratilib ko'rsatilib, ish-harakatni aynan shu shaxs bajarishi izohlanldi.

Fransuz tilidagi aniqlovchi ergash fgapli qo'shma gaplar o'zbek tilida bog'lovchisiz (1) va bog'langan (2) qo'shma gaplar orqali berilgan. Fransuz tilidagi modal fe'l o'zbek tilida turli analitik yo'l bilan ifodalangan. Istakni ifodalashda –moqchi (2) modal qo'shimchasi qo'llangan.

Fransuz va o'zbek tillarida istak kategoriyasining payt ergash gapli qo'shma gapda ifodalanishi.

Payt ergash gap bosh gapdagi voqea-hodisa yoki harakatning yuzaga kelish vaqtini, paytini ko'rsatadi. Ushbu ergash gapli qo'shma gapda voqea-hodisa yoki harakat bir vaqtda yoki ketma-ket yuzaga keladi. Bir vaqtda yuzaga keladigan harakatda ham, hsuningdek ketma-ket keladigan harakatda ham turli ma'no nozikligi bor. Masalan, fransuz tilida istak kategoriyasi payt ergash gaplarda ko'proq quand bog'lovchisi bilan kelsa, ba'zan esa oh bog'lovchisi orqali kiritilishi mumkin. to'g'ri, fransuz tilida payt ergash gaplar turli bog'lovchilar bilan ifodalanishi mumkin, ammo istak kategoriyasi modal fe'l bilan berilganda, boshqa payt ma'nosini ifodalovchi bog'lovchilar qo'llanmasligi mumkin. Masalan:

(1) Moi, quand je veux flâner, le soir, je ne sais jamais où aller (MBA, 19)

Ba'zan oqshomlari biron yerga borging keladi, lekin qayerga borishingni bilmay boshing qotadi (MA, 13).

(2) Cela voulait dire “Je me rends, je suis à vous voudrez, quand vous voudrez” (MBA, 187).

Axir bu: “Men sizning ixtiyoringizdaman, meni nima qilsangiz o'zingiz bilasiz, qayerda, qachon, qanday, istaganingizcha”, deganida – da (MA, 265).

Misollarda ko'rinadiki, quand bog'lovchisi orqali bog'langan payt ergash gaplar bosh gapdan oldin (1) yoki keyin (2) qo'llanishi mumkin. payt ergash gaplarda prezns ((1) va imperfekt (2) zamonlari indikativ maylda qo'llangan.

Fransuz tilida payt ma'nosi bog'lovchilar bilan ifodalanishdan tashqari, alohida maxsus so'zlar (le soir, jamais (1), des jours (4) bilan ham ifodalanadi. Ushbu tildagi payt ergash gaplar o'zbek tilida bog'langan qo'shma gap (1) va payt (2) ergash gapli qo'shma gaplarga mos keladi.

Les litteratures utilisés

Les ouvrages officiel.

1. Karimov I. A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. Toshkent. O‘zbekiston, 2011.

2. Karimov I. A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz tarqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz faravonligini oshirishga xizmat qiladi. Prezident Karimovning I. A. 2014 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo‘ljallangan eng muhim ustuvor yo‘nalishlarga bag‘ishlangan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi. Ma‘rifat, 2011 yil 22 yanvar.

3. Karimov I. A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. Toshkent. O‘zbekiston, 2011.

Les ouvrages ouzbek.

4. Abduazizov A. A. O‘zbek tili fonologiyasi va morfologiyasi. T. O‘zbekiston, 1992.

5. Ёқубов Ж. Модаллик категориясининг мантиқ ва тилда ифодаланишининг семантик хусусиялари. Тошкент. Ўзбекистон, 2005.

Les ouvrages français.

6. Becherelle. La grammaire pour tous. Index des difficultés grammaticales. Hatier Paris. 1990.

7. Communication expresse. (Méthode de français). 2001.

8. Bally. Ch. Linguistique générale et linguistique française. P. 1952.

9. Dubois. G. Grammaire structurale du français. P. 1969.

10. G et R. Le Bidois. Syntaxe du français moderne. P . 1974.

11. Gak. V. G. Essai de grammaire fonctionelle du français. P. 1969.

12. Jean Dubois. Dictionnaire de linguistique. Libairie Labrosse . P. 1987.

13. Le Nouveau sans frontières. Cahier d’exercice. P. 1992.

